



KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR – YOSHLAR HUQUQINING KAFOLATLARI

Abdimannobova Sevara

O'zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning Konstitutsiya va Qonunlarda belgilab qo'yilgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari, va yoshlarning bu kabi huquqlarini, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan izlohotlar yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarning qonunchilikda kafolatlangan qonuniy kafolatlari, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechim topish usullari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, yoshlar huquqi, yoshlar daftari, yoshlar portali, konstitutsiyaviy huquqlar, mehnat huquqi, ta'lim huquqi, inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются личные, политические, экономические, социальные, культурные и экологические права молодежи, определенные в Конституции и Законах, а также проводимые сегодня в нашей стране реформы по защите таких прав, свобод и законных интересов молодежи. выделяется молодежь. Также в статье выражены гарантированные законодательством правовые гарантии молодежи, методы поиска эффективных решений проблем в сфере молодежи.

Ключевые слова: молодежь, права молодежи, молодежная тетрадь, молодежный портал, конституционные права, трудовое право, право на образование, инклюзивное образование, дети с особыми образовательными потребностями.

Abstract: In this article, the personal, political, economic, social, cultural and environmental rights of young people defined in the Constitution and Laws, as well as the reforms being implemented in our country today to protect such rights, freedom and legal interests of young people are highlighted. Also, the legal guarantees of young people guaranteed by legislation, methods of finding effective solutions to problems in the field of youth are expressed in the article.

Keywords: youth, youth rights, youth notebook, youth portal, constitutional rights, labor law, right to education, inclusive education, children with special educational needs.

O'zbekistonda yoshlarning soni bugungi kunda 19 mlndan oshmoqda, ya'ni mamlakatimiz aholisining 55 foizga yaqinini tashkil etmoqda, shu sababdan ham yoshlar siyosati mamlakat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish maqsadida bir qator tizimli ishlar yo'lga qo'yilib, davlatimiz tomonidan yoshlarga oid 50 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlari qabul qilingan.

Xususan, 2020-yil Harakatlar strategiyasi dasturi doirasida yoshlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolarini yuzaga chiqarish, qonun ijodkorligida yoshlarning ishtirokini ta'minlash, bo'lg'usi deputat va senat a'zolari hamda siyosatchilarni tayyorlash, yoshlarni ulkan maqsad va aniq loyihalarga yo'naltirib borish vazifalarini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzurida Yoshlar parlamenti tashkil etildi. Bu esa yoshlarning ular manfaatlariga ta'sir ko'rsatadigan muammolarni hal qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatini yaratdi. Bundan tashqari, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi – "Yoshlar daftari" shakllantirildi.

2020-yil 30-iyundagi Prezident qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi va yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechim topish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash agentlikning ustuvor vazifasi etib belgilandi. Yoshlarning huquqlarini himoya qilishda yaratilgan yana bir imkoniyatlardan biri bu – Yoshlar portali hisoblanib, unda ta'lim olayotgan va ishlayotgan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va tashabbuslar haqida ma'lumot berib boriladi. Yoshlar portali orqali yoshlar turli imtiyozlar, imkoniyatlar, grantlar, tanlovlar va turli tadbirlar haqida tez va oson ma'lumot olishlari mumkin.

Yoshlar sohasiga doir islohotlar 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida ham o'z aksini topgan bo'lib, yoshlar siyosatini takomillashtirish yuzasidan quyidagilar belgilandi:

- Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash;
- Yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash;
- Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;
- Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;
- Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

- Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;
- Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Yoshlarning konstitutsiyaviy huquqlari.

Yoshlar deganda o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan shaxslar tushunilsa, yoshlar huquqlari deganda ularning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari tushuniladi.

Qonunchilikda belgilangan tartibda yoshlar uchun quyidagilar kafolatlanadi:

- bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi;
- bepul umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim olish;
- davlat ta'lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta'lim olish;
- ta'lim muassasalarida o'qish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta'lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;
- mehnat sohasida yoshlarga ishni ta'lim bilan qo'shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish.

2023-yil 30-apreldagi bo'lib o'tgan referendumda xalqimiz tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyada ham yoshlarning bu kabi huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlanilishi alohida modda sifatida belgilab qo'yildi. Konstitutsiya **78-moddasida** davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishi;

79-moddasida esa yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga, ularning ochiq va sifatli ta'lim olishi, hayoti va sog'lig'ini saqlash, uy-joyga, ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlash hamda dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan shart-sharoitlar yaratilishi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlashi bo'yicha choralar ko'rishi ham Konstitutsiya normalarida o'z ifodasini topdi.

Yoshlarning ta'lim olish va mehnat sohasidagi huquqlari:

Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishi, inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida Prezidentimiz oliy ta'limda taxsil olayotgan yigit va qizlar uchun turli xil imtiyozlar belgilamoqda. Ayniqsa, so'ngi yillarda umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalarini tamomlagan yigit-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash, ularni zamonaviy kasb-hunarlar o'rgatilishiga keng jalb etish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyada har kim ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, bepul

umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi belgilangan bo'lib, yoshlar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olish huquqiga egadirlar. Konstitutsiyamizda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqini ta'minlashga doir norma belgilanib, unga ko'ra fuqarolarni, ayniqsa, sog'lig'ida muammosi bo'lgan bolalarni ta'lim va tarbiya olishi uchun bog'cha, maktab, oliy ta'lim tashkilotlarida maxsus sharoitlarni yaratish ijtimoiy davlatning vazifalari ekanligi belgilandi. Bu kabi ta'limga oid alohida normaning belgilanishi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishiga, ta'lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo'l qo'yilmasligiga xizmat qiladi

Shuningdek Mehnat kodeksi moddalarida yoshlarning ta'lim olish va mehnatga doir huquqlarini muhofaza qilish yuzasidan bir qator normalar mavjud bo'lib, xususan, ish beruvchi mehnat shartnomasi bo'yicha ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarida tahsil olib, o'quv rejasini bajarayotgan xodimlarga ish joyi bo'yicha o'rtacha ish haqi saqlangan holda o'quv ta'tili va qisqartirilgan ish haftasi berilishi belgilangan.

Yoshlar ishga joylashish sohasida qo'shimcha kafolatlariga ega bo'lib, Mehnat kodeksining **129-moddasiga** muvofiq ishga qabul qilish chog'idagi dastlabki sinov tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilariga nisbatan qo'llanilmaydi. Davlat tomonidan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlarning ishga joylashishi bo'yicha qo'shimcha kafolatlarning ta'minlanishi orqali ham yoshlarning mehnatga doir huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat himoyasida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo'yishlari, o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, ularning bandligiga ko'maklashish, doimiy ish bilan hamda munosib daromad olishini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama barkamol bo'lib yetishishlari uchun ularning muamolarini bartaraf etish yuzasidan bu kabi tizimli dasturlar hamda bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqilayotganligi, ayniqsa, ularning huquqlari, erkinlik va qonuniy manfaatlari konstitutsiyaviy qonunlarda o'z ifodasini topayotganligi mamlakatimiz yoshlari huquqlarining kafolatidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // URL: <https://lex.uz/docs/6445145>;
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>;
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/acts/-3026246>;
4. 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi // URL: <https://lex.uz/docs/-3568448>;
5. Yoshlar sohasiga doir islohotlar 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>;
6. <https://lex.uz/uz/docs/-6442039>
7. Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6145>
8. Янгиладанаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти. – Тошкент. “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 йил. – 180 б // URL: <file:///C:/Users/HP/Downloads/Telegram%20Desktop/Yangilanayotgan%20Konstitutsiya%20100%20savolga%20%20100%20javob.pdf>.